



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 8 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 8, НОМЕР 8

LOOK TO THE PAST
VOLUME 8, ISSUE 8



ТОШКЕНТ-2025

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат университети

Махкамova Надира Раҳмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Агамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Сайнова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоқов Бахтиёр Робидинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

Турсунова Юлдуз Бобоқуловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Ganjina Azimova NOYOB KITOBLAR FONDI O‘ZBEKISTON TARIXI DAVLAT MUZEYIDA.....	5
2. Елена Гордеева СТРОИТЕЛЬНЫЕ ТРАДИЦИИ РАННИХ ЗЕМЛЕДЕЛЬЦЕВ ДРЕВНЕГО ШАША.....	11
3. Mohinur Isaqova YANGI O‘ZBEKISTONDA XALQCHIL VA INSONPARVAR DAVLAT QURISHNING IJTIMOIY-SIYOSIY AHAMIYATI.....	16
4. Pyos Oqbo‘tayev KOREYS XALQINING TO‘LJANJI MAROSIMI VA UNING TRANSFORMATSIYASI.....	22
5. Жамшид Пиримкулов ТОШКЕНТ ВИЛОЯТИ САНОАТ ШАҲАРЛАРИНИНГ ТАШКИЛ ТОПИШИ.....	29
6. Xumora Pozilova TIRNAB BEZAK BERILGAN SOPOL IDISHLARLARNING TARIXIY ILDIZLARI, XRONOLOGIYASI, TARQALISH GEOGRAFIYASI VA O‘RGANILISHI.....	39
7. Murod Raxmatov “YANGI TURKISTON” JURNALI – MA’RIFAT VA KURASH MINBARI.....	46
8. Boburjon Teshaboyev FUQARO MUHOFAZASI VA FAVQULODDA VAZIYATLAR SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	51
9. Baxtiyor Xalmuratov “YOMG‘IR” RAMZI BILAN BOG‘LIQ XALQ QARASHLARI.....	58
10. Хулкар Холикулова ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕКISTONДА “ЛИДЕР АЁЛ” ВА “ЗАМОНАВИЙ АЁЛ” ТУШУНЧАЛАРИ.....	66
11. Шахноза Холикулова ЎЗБЕКISTONДА 1930-1940 ЙИЛЛАРДА КИМЁВИЙ ТАДҚИҚОТЛАРНИНГ САНОАТЛАШУВИ ТАРИХИ.....	71
12. Рашид Холмуродов ЖИЗЗАХ ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА УНИВЕРСИТЕТИ ФАОЛИЯТИ ТАРИХИ.....	77



Boburjon Abror o'g'li Teshaboyev,
O'zbekiston Milliy Universiteti tadqiqotchisi
b_boss_93@mail.ru

FUQARO MUHOFAZASI VA FAVQULODDA VAZIYATLAR SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

For citation: Boburjon A. Teshaboyev. STAGES OF DEVELOPMENT OF THE PERSONNEL TRAINING SYSTEM IN THE FIELD OF CIVIL DEFENSE AND EMERGENCY SITUATIONS. Look to the past. 2025, vol. 8, issue 8.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.17253260>

ANNOTATSIYA

Maqolada O'zbekistonda fuqaro muhofazasi sohasida kadrlar tayyorlash tizimining tarixiy rivojlanishi va zamonaviy bosqichlari tahlil qilinadi. Ikkinchi jahon urushi yillarida front orti xavfsizligini ta'minlashga xizmat qilgan Mahalliy havo hujumidan mudofaa shtablari hamda tayyorgarlik tizimi, urushdan keyingi davrda fuqarolarni favqulodda vaziyatlarga tayyorlashning institutsional rivoji ko'rib chiqiladi. Mustaqillikdan so'ng tashkil etilgan Fuqaro muhofazasi instituti va FVV Akademiyasining kadrlar tayyorlash, magistratura dasturlari, amaliy mashg'ulotlar hamda simulyatsiya markazlari faoliyati yoritiladi. Shuningdek, "Temurbeklar maktabi" harbiy litseyi va Boshlang'ich tayyorgarlik markazining o'rni tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: fuqaro muhofazasi, kadrlar tayyorlash tizimi, favqulodda vaziyatlar, FVV Akademiyasi, Fuqaro muhofazasi instituti, simulyatsiya markazi, Temurbeklar maktabi, qutqaruvchilarni tayyorlash markazi, favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik.

Бобуржон Аброр углы Тешабоев,
Исследователь Национального университета Узбекистана
b_boss_93@mail.ru

ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ ПОДГОТОВКИ КАДРОВ В СФЕРЕ ГРАЖДАНСКОЙ ОБОРОНЫ И ЧРЕЗВЫЧАЙНЫХ СИТУАЦИЙ

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается историческое развитие и современные этапы системы подготовки кадров в области гражданской защиты в Узбекистане. Анализируются местные штабы воздушной обороны и система подготовки, обеспечивавшие безопасность тыла во время Второй мировой войны, а также институциональное развитие подготовки граждан к чрезвычайным ситуациям в послевоенный период. Освещается деятельность Института гражданской защиты и Академии МЧС, созданных после обретения независимости, включая подготовку кадров, магистерские программы, практические занятия и центры симуляции. Также анализируется роль военного лица «Темурбеклар» и Центра начальной подготовки.

Ключевые слова: Гражданская оборона, система подготовки кадров, чрезвычайные ситуации, Академия МЧС, Институт гражданской обороны, симуляционный центр, военная школа «Темурбеклар», центр подготовки спасателей, подготовка к чрезвычайным ситуациям.

Boburjon A. Teshaboyev,

Researcher at the National University of Uzbekistan
b_boss_93@mail.ru

STAGES OF DEVELOPMENT OF THE PERSONNEL TRAINING SYSTEM IN THE FIELD OF CIVIL DEFENSE AND EMERGENCY SITUATIONS

ABSTRACT

The article examines the historical development and modern stages of the personnel training system in the field of civil protection in Uzbekistan. It analyzes the local air raid defense staffs and training system that ensured rear-line security during the Second World War, as well as the institutional development of preparing citizens for emergencies in the post-war period. The activities of the Civil Protection Institute and the MES Academy established after independence, including personnel training, master's programs, practical exercises, and simulation centers, are highlighted. The role of the "Temurbeklar School" military-lyceum and the Initial Training Center is also analyzed.

Index Terms: Civil defense, personnel training system, emergency situations, MES Academy, Civil Defense Institute, simulation center, Temurbeklar Military School rescuers training center, emergency preparedness.

Dolzarbligi:

Fuqaro muhofazasi va favqulodda vaziyatlar sohasida kadrlar tayyorlash tizimi O'zbekiston Respublikasida xavfsizlikni ta'minlashning muhim komponenti sifatida rivojlanmoqda. Ikkinchi jahon urushi yillarida front orti xavfsizligini ta'minlashga xizmat qilgan Mahalliy havo hujumidan mudofaa shtablari, shuningdek, sanoat obyektlarida shakllantirilgan maxsus otryadlar bu tizimning dastlabki bosqichini tashkil etdi. Urushdan keyingi davrda fuqarolarni favqulodda vaziyatlarga tayyorlash institutsional tus oldi, Respublika Fuqaro mudofaasi kurslari tashkil etildi va rahbar xodimlar hamda qo'mondonlik tarkibi kasbiy tayyorgarlikdan o'tkazildi. Mustaqillik yillarida tashkil etilgan Fuqaro muhofazasi instituti va FVV Akademiyasi zamonaviy kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirdi, bu esa favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik va xavfsizlikni mustahkamlashda muhim rol o'ynadi. Shu bilan birga, "Temurbeklar maktabi" harbiy litseyi va Boshlang'ich tayyorgarlik markazi yosh avlodni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va malakali kadrlar zaxirasini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Dolzarb ahamiyatga ega masala shundaki, tabiiy va texnogen favqulodda vaziyatlar xavfini kamaytirish va tezkor boshqaruvni ta'minlash yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga bog'liq bo'lib, bu tizimning izchil va zamonaviy rivojlanishi muhim ilmiy va amaliy vazifa hisoblanadi.

Metodlar: Tadqiqot metodlari sifatida tarixiy-hujjatli tahlil, statistik ma'lumotlar tahlili, arxiv materiallari va rasmiy hujjatlar ko'rib chiqildi. Urush yillari, sovet davri va mustaqillik davridagi fuqarolarni favqulodda vaziyatlarga tayyorlashning institutsional rivoji tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari: Tahlil shuni ko'rsatadiki, fuqaro muhofazasi va favqulodda vaziyatlar sohasidagi kadrlar tayyorlash tizimi quyidagi bosqichlarda rivojlandi:

1. Urush davri (1941–1945) – Mahalliy havo hujumidan mudofaa shtablari, sanoat otryadlari va o'quv kurslari tashkil etilib, aholining xavfsizlik va mudofaa ko'nikmalari shakllantirildi.

2. Sobiq Ittifoq davri (1945–1991) – Respublika Fuqaro mudofaasi kurslari, rahbar xodimlar va qo'mondonlik tarkibini tayyorlash tizimi rivojlantirildi.

3. Mustaqillikdan keyingi davr (1991–2010) – Fuqaro muhofazasi instituti va Qutqaruvchilarni tayyorlash markazi tashkil etildi, kadrlar tayyorlashning zamonaviy metodlari joriy etildi. 20 mingdan ortiq mutaxassis va qutqaruvchilar tayyorlandi.

4. Zamonaviy davr (2010–hozirgi vaqt) – Simulyatsiya markazlari, “Temurbeklar maktabi” va FVV Akademiyasi orqali yuqori malakali ofitser va mutaxassislar tayyorlanmoqda. Akademiyada magistratura dasturi joriy etilib, 64 nafar magistr tayyorlandi.

Shuningdek, tahlil shuni ko‘rsatadiki, Fuqaro muhofazasi instituti va FVV Akademiyasining zamonaviy pedagogik texnologiyalar va amaliy mashg‘ulotlar asosidagi kadrlar tayyorlash jarayoni mamlakat favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik darajasini sezilarli darajada oshirdi.

1941–1945-yillardagi Ikkinchi jahon urushi O‘zbekiston hududida ham fuqaro muhofazasi choralari kuchaytirishni talab etdi. Front orti xavfsizligini ta‘minlash maqsadida respublika miqyosida tuman, shahar va viloyat darajasida Mahalliy havo hujumidan mudofaa shtablari tashkil etildi hamda strategik ahamiyatga ega sanoat obyektlarida maxsus otryadlar shakllantirildi. Ushbu davrda havo va kimyoviy hujumlarga qarshi amaliy va nazariy mashg‘ulotlar tizimli yo‘lga qo‘yildi. 1942-yil oxiriga kelib, rasmiy ma‘lumotlarga ko‘ra, 4,47 milliondan ortiq fuqaro havo hujumidan mudofaa bo‘yicha tayyorgarlikdan o‘tkazildi. Shu bilan birga, tizim rahbarlari va qo‘mondonlik tarkibining kasbiy tayyorgarligi ham ustuvor vazifaga aylandi. 1943-yil 20-maydan Toshkent shahrida Respublika Mahalliy havo hujumidan mudofaa kurslari ochilib, har 45 kunlik siklda 120 nafargacha rahbar xodim zarur nazariy va amaliy bilimlarga ega bo‘ldi. Kurs tinglovchilari bepul ta‘minot va ish joylarida maoshning saqlanishi huquqiga ega edi. Tayyorgarlik dasturiga Mahalliy havo hujumidan mudofaa tuman boshliqlari, shahar va tuman shtablari rahbarlari, sanoat obyektlari otryadlari boshliqlari hamda o‘rta rahbar tarkib vakillari jalb qilindi. Mazkur chora-tadbirlar O‘zbekistonda fuqaro muhofazasi tizimining shakllanishida muhim bosqich bo‘lib xizmat qildi.

O‘zbekiston Ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaga sezilarli hissa qo‘shgan hududlardan biri sifatida e‘tirof etiladi. Urush yillarida Mahalliy havo hujumidan mudofaa tizimi front orti xavfsizligini ta‘minlashda muhim o‘rin tutdi. Ushbu tizim xodimlari va jamoatchilik faollari dushman avia hujumlarini bartaraf etish, aholining o‘zini-o‘zi himoya qilish ko‘nikmalarini shakllantirish, shuningdek mudofaa guruhlarini tashkil etish va tayyorlash bo‘yicha keng ko‘lamli tadbirlarni amalga oshirdilar.

Ma‘lumotlarga ko‘ra, urush yillarida sanoat korxonalari, transport inshootlari, ta‘lim va sog‘liqni saqlash obyektlari bazasida jami 6572 ta, har biri 54 kishidan iborat o‘zini-o‘zi himoya qilish guruhlari tuzilib, maxsus tayyorgarlikdan o‘tkazilgan. Ushbu guruhlar favqulodda holatlarga javob qaytaruvchi asosiy bo‘g‘in vazifasini bajargan.

Urushdan keyingi davrda fuqarolarni favqulodda holatlarga tayyorlash tizimi institutsional tus ola boshladi. 1969-yil oktabr oyida O‘zbekiston Hukumati qaroriga binoan Respublika Fuqaro mudofaasi kurslari tashkil etilib, rahbar xodimlar va qo‘mondonlik-boshliqlar tarkibini kasbiy tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. O‘quv jarayonlari rahbarlar uchun besh kunlik (35 soat), shtatdagi xodimlar uchun esa bir oylik (150 soat) dasturlar asosida olib borildi [1]. Har yili 1200–1300 nafar mutaxassisning tahsil olishi fuqaro mudofaasi tizimining professional salohiyatini oshirishda muhim omil bo‘ldi.

1991-yil 1-sentabrdan boshlab O‘zbekiston mustaqilligi sharoitida Fuqaro mudofaasi tizimini bosqichma-bosqich isloh qilish jarayoni boshlandi. Islohotlarning maqsadi tabiiy va texnogen favqulodda vaziyatlarda aholining himoyasini kuchaytirish hamda zamonaviy xavflarga mos boshqaruv modelini shakllantirishdan iborat edi. 1992-yilda Fuqaro mudofaasi bo‘yicha Respublika kurslari negizida rahbar kadrlarni tayyorlashga ixtisoslashgan Fuqaro mudofaasi va favqulodda vaziyatlar bo‘yicha Respublika o‘quv-uslubiy markazi tashkil etildi. Markazning tashkiliy tuzilmasi kengaytirilib, o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish va texnik ta‘minotni yaxshilash maqsadida qo‘shimcha xodimlar jalb qilindi.

Markaz faoliyatining takomillashuvi FVDT bo‘g‘inlarida rahbar va mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish imkoniyatlarini kengaytirdi hamda favqulodda vaziyatlar sohasi bo‘yicha ixtisoslashgan oliy o‘quv yurtini tashkil etishga zamin yaratdi.

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish tizimini takomillashtirish yuqori malakali kadrlar tayyorlashni taqozo etdi. Shu maqsadda O'zbekiston FVV tizimida qator chora-tadbirlar amalga oshirilib, Rossiya bilan hamkorlikda qo'mondonlik-boshqaruv bo'g'inidagi ofitserlar ikki yillik maxsus kurslarda malaka oshirish imkoniga ega bo'ldilar [2]. Hamkorlik dasturi ofitserlarning favqulodda vaziyatlarni baholash, murakkab xavf-xatarlarni prognoz qilish, xavfsizlikni tizimli boshqarish va tezkor rejalashtirish bo'yicha nazariy hamda amaliy kompetensiyalarini rivojlantiradi. 2000–2022-yillarda jami 63 nafar o'zbekistonlik ofitser ushbu akademiyada tahsil olib, dasturini muvaffaqiyatli tamomlagan [3]. Ular hozir fuqaro muhofazasi sohasida rahbarlik lavozimlarida xizmat qilib, xorijiy tajribani mahalliy sharoitga tatbiq etish orqali favqulodda vaziyatlar tizimini mustahkamlashga hissa qo'shmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi tashkil etilgach, aholini hamda rahbar kadrlarni fuqaro mudofaasi va favqulodda vaziyatlarga tayyorlash uning asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Shu maqsadda ilgari Mudofaa vazirligi tarkibida faoliyat yuritgan Fuqaro mudofaasi va favqulodda vaziyatlar bo'yicha rahbar kadrlarni tayyorlash markazi negizida O'zbekiston Respublikasi Fuqaro mudofaasi instituti tashkil etildi [4]. Institutning asosiy vazifasi — respublika, viloyat va tuman darajasidagi rahbarlar hamda mutaxassislarining fuqaro muhofazasi va safarbarlik tayyorgarligi bo'yicha malakasini oshirishdir. 2011-yilda Qutqaruvchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash markazi institut tarkibiga qo'shilib, uning infratuzilmasi rivojlanish jarayoniga integratsiya qilindi [5]. 1996–2011-yillarda Fuqaro muhofazasi instituti va Qutqaruvchilarni tayyorlash markazida 20 mingdan ortiq mutaxassis hamda qutqaruvchi favqulodda vaziyatlarda aholining xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tayyorlandi. Institutda ilmiy daraja va unvonga ega bo'lganlar soni 2016-yilda 6 nafar bo'lgan bo'lsa, 2021-yilda 12 nafarga yetdi.

2015-yilda Fuqaro muhofazasi institutida BMT Taraqqiyot dasturi va Yevropa komissiyasi Gumanitar yordam departamenti ko'magida zamonaviy zilzila simulyatsiya markazi tashkil etildi [6]. Bu markaz Markaziy Osiyoda ilk bor O'zbekistonda tashkil etilgan [7]. Mazkur simulyator aholining seysmik xatar sharoitidagi harakat algoritmlariga tayyorgarligini oshirish, psixologik barqarorligini mustahkamlash hamda favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi [8]. 2020-yildan markaz "Favqulodda vaziyatlar simulyatsiya markazi" sifatida qayta tashkil etilib, barcha turdagi favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlikni ta'minlashga yo'naltirildi [9].

1996–2021-yillar davomida Fuqaro muhofazasi instituti tomonidan 42 mingdan ortiq rahbar kadrlar hamda mutaxassislar tayyorlangan. Mazkur davrda institut mamlakat miqyosida favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik darajasini oshirish, shuningdek, xavfsizlik tizimida yuqori malakali mutaxassislarni shakllantirishda muhim o'rin egallagan. 2015–2021-yillar oralig'ida esa institut qoshida tashkil etilgan Simulyatsiya markaziga jami 23 786 nafar tinglovchi tashrif buyurgan. Ularning tarkibi quyidagicha taqsimlangan: 4236 nafari xorijiy davlatlarning elchixonalari vakillari hamda respublika miqyosidagi turli vazirlik va idoralar rahbarlari, 8510 nafari institut tinglovchilari, 11040 nafari esa oliy va o'rta maxsus ta'lim hamda xalq ta'limi tizimida tahsil olayotgan o'quvchi va talabalar hisoblanadi [10].

Fuqaro muhofazasi institutida, asosan, obyekt rahbarlari hamda sohada mas'ul mutaxassislarining malakasi muntazam oshirib borilgan. 1997–2002-yillarda 9 ming nafar [11], 2016-yil yanvar holatiga kelib esa jami 30300 nafar mutaxassis qayta tayyorlandi. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish maqsadida institut tomonidan rejadan tashqari 832 marotaba ko'chma dars o'tkazilib, 37 mingdan ortiq fuqaro qamrab olindi. Turli idora va tashkilotlar bilan hamkorlikda tashkil etilgan maxsus o'quv mashg'ulotlarida esa 11136 nafar tinglovchi ishtirok etdi [12].

So'nggi yillarda Fuqaro muhofazasi instituti tomonidan kadrlar tayyorlash jarayoni tizimli yo'lga qo'yildi. Shu davrda fuqaro muhofazasi yo'nalishida 32068 nafar, safarbarlik tayyorgarligi bo'yicha 4196 nafar, FVV va boshqa idoralarga qarashli 601 nafar harbiy xizmatchi hamda 2342 nafar qutqaruv xodimi malaka oshirish kurslarini tamomladi [13].

Favqulodda vaziyatlarda aholini va hududlarni himoya qilish sohasida kadrlar tayyorlash, ularni qayta tayyorlash va malakasini oshirish samaradorligini oshirish hamda ilmiy tadqiqotlarni

rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-iyundagi qarori qabul qilindi. Ushbu hujjat FVDT boshqaruv organlari va fuqaro muhofazasi kuchlarini yagona tizim asosida, zamonaviy ta‘lim standartlari va ilg‘or xorijiy tajribalar asosida tayyorlashni belgiladi. Fuqaro muhofazasi instituti esa ushbu yo‘nalishda tayyorlov, malaka oshirish va ilmiy izlanishlarni amalga oshiruvchi yetakchi ilmiy-amaliy markaz sifatida faoliyat yuritmoqda [14].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-iyundagi PQ–3030-son qaroriga muvofiq, Fuqaro muhofazasi institutida “Favqulodda vaziyatlarda aholi xavfsizligi” yo‘nalishi bo‘yicha magistratura dasturi joriy etildi. Ushbu bosqichga “Hayotiy faoliyat xavfsizligi” yo‘nalishi bitiruvchilari hamda FVV va FVDT tizimida kamida besh yillik stajga ega mutaxassislar qabul qilinadi. Qabul jarayoni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 20-iyundagi 393-son qaroriga asosan amalga oshiriladi. Tinglovchilarga o‘qish davrida ish joyi va o‘rtacha ish haqi saqlanadi, doimiy ish joyiga ega bo‘lmaganlarga stipendiya to‘lanadi. 2017/2018-o‘quv yili uchun magistratura kvotasi 25 o‘rin bo‘lib, shundan 8 tasi davlat granti va 17 tasi to‘lov-kontrakt asosida ajratilgan [15].

2017–2021-yillar davomida institutda “Favqulodda vaziyatlarda aholi xavfsizligi” mutaxassisligi bo‘yicha jami 64 nafar magistr darajasiga ega, oliy ma‘lumotli yuqori malakali kadrlar tayyorlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga muvofiq, yosh avlodni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda Qurolli Kuchlar va boshqa davlat xizmatlari uchun malakali kadrlar zaxirasini shakllantirish maqsadida Shahrisabz shahrida “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi tashkil etildi [16]. Qarorga muvofiq, FVV buyrug‘iga asosan Temurbeklar maktabi harbiy-akademik litseyi uchun shtat birligi joriy etildi. Litseyga rahbarlik, moliyalashtirish va moddiy-texnik ta‘minotni FVV ta‘minlaydi. Uning faoliyati FVV tasdiqlagan va Oliy hamda o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi bilan kelishilgan namunaviy reja va davlat standartlariga asoslanadi. Litsey matematika va fizika fanlariga ixtisoslashgan bo‘lib, 2 yillik ta‘lim dasturiga ega. Har yili 100 nafar o‘quvchi qabul qilinadi. Zamonaviy texnologiyalarga ega auditoriyalar, elektron kutubxona, sport zallari, o‘quv minorasi, suv havzasi, yotoqxon va boshqa infratuzilmalar bilan jihozlangan. Litsey bitiruvchilariga davlat namunasidagi diplom, ko‘krak nishoni va “B”, “C” toifadagi haydovchilik guvohnomasi beriladi. Ular oliy harbiy ta‘lim muassasalariga kirishda to‘plagan ballarining 30%, fuqaro oliy ta‘lim muassasalariga esa 15% miqdorida qo‘shimcha ball oladilar. Imtiyozli diplom egalariga esa FVV Akademiyasi kabi oliy harbiy ta‘lim muassasalariga dastlabki tanlov va tibbiy ko‘rikdan so‘ng test sinovsiz suhbat asosida qabul imkoni yaratiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga ko‘ra, Samarqand shahrida FVV Akademiyasi huzurida Boshlang‘ich tayyorgarlik va malaka oshirish markazi tashkil etilgan. 2019-yil 10-apreldagi PF–5706-son farmon va PQ–4276-son qarorga asosan, markaz qayta tashkil etilib, FVV tizimidagi 19 toifadagi harbiy xizmatchi va xizmatchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish bilan shug‘ullanadi. Boshlang‘ich tayyorgarlik kurslari 2 oy davom etib, 288 soat nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni qamrab oladi. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari esa 12–30 kun davomida 72–144 soatlik dastur asosida olib boriladi [17].

Mazkur markaz faoliyatining asosiy yo‘nalishi FVV tizimidagi xodimlarning kasbiy salohiyatini oshirish, ularni zamonaviy bilim va amaliy ko‘nikmalar bilan qurollantirish, shuningdek, yong‘in xavfsizligi, fuqaro muhofazasi hamda turli favqulodda holatlarga samarali javob qaytarishga kompleks tayyorlashdan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi dastlab 1993-yilda Yong‘in xavfsizligi oliy texnik maktabi sifatida tashkil etilgan. 2017-yilda u institut maqomini, 2020-yilda esa Akademiya maqomini oldi. Akademiya favqulodda vaziyatlar, yong‘in xavfsizligi, fuqarolar muhofazasi va hayot faoliyati xavfsizligi sohasida yuqori malakali ofitser va mutaxassislarni tayyorlaydigan respublikadagi yagona oliy harbiy ta‘lim muassasidir. Shu bilan birga, u ilmiy-tadqiqot ishlari olib boradi va xalqaro hamkorlikni rivojlantiradi. Akademiyaga qabul O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 12-sentabrdagi PQ–4447-son qarori va Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-dekabrdagi 775-son qarori bilan tasdiqlangan nizomlar asosida amalga

oshiriladi. Qabul qilish jarayoni fuqarolar uchun doimiy yashash joyidagi mudofaa ishlari bo'limlari, harbiy xizmatchilar uchun esa xizmat joyidagi muassasalar orqali rasmiylashtiriladi [18].

O'zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasiga o'qishga 17–23 yoshdagi fuqarolar, shu jumladan qabul yilida 17 yoshga to'ladiganlar qabul qilinadi. Shuningdek, 18–25 yoshdagi, harbiy unvonga ega bo'lmagan harbiy xizmatchilar va harbiy xizmatga majburlar hamda 26 yoshgacha bo'lgan oliy ta'lim muassasalari talabalari tanlov asosida o'qishga qabul qilinadi. O'zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasiga kadrlar tanlash jarayonida harbiy-professional yo'naltirish tadbirlari muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular nomzodlarda harbiy kasbga ongli munosabatni shakllantirish, qiziqish va psixologik xususiyatlariga mos mutaxassislikni tanlashga ko'maklashadi. Shu bilan birga, yoshlarning harbiy soha bo'yicha ijtimoiy-ma'naviy ongini rivojlantiradi va Akademiyaga tayyor, motivatsiyaga ega nomzodlarni aniqlash imkonini beradi. Nomzodlar davlat test sinovlaridan o'tadi, ularning majburiy va mutaxassislik fanlari bloklarini qamrab olishi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan nazorat qilinadi. Testlar faqat dastlabki saralash bosqichlarini muvaffaqiyatli yakunlaganlar uchun o'tkaziladi. O'zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasiga nomzodlar Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-dekabrda 775-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomga muvofiq imtiyozlar bilan qabul qilinadi. Ushbu imtiyozlar doirasida ayrim nomzodlarga test ballariga qo'shimcha ball berilishi yoki test sinovlaridan ozod qilinib, suhbat asosida qabul qilish mumkin. O'qishga qabul qilingan kursantlar bepul mavsumiy kiyim-bosh, zamonaviy yotoqxon, oziq-ovqat va belgilangan miqdorda stipendiya bilan ta'minlanadi. Akademiyada "Yong'in xavfsizligi" va "Texnosfera xavfsizligi" mutaxassisliklari bo'yicha ofitser kadrlar tayyorlanadi. Bitiruvchilarga leytenant unvoni va magistratura darajasiga tenglashtirilgan davlat diplomi beriladi [19].

O'zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasida o'quv jarayoni zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ilg'or texnik jihozlar asosida tashkil etilgan. Akademiya infratuzilmasiga o'quv-laboratoriya binolari, tibbiyot xizmati punkti, maishiy xizmat obyektlari, Ma'naviyat va ma'rifat markazi, shuningdek kursantlar uchun o'quv va sport maydonchalari kiradi. Ushbu obyektlar kursantlarning nazariy bilimlarini mustahkamlash, amaliy ko'nikmalarini oshirish, bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazish hamda jismoniy va ma'naviy kamolotini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, Akademiya o'quv mashg'ulotlarini amaliy idoraviy faoliyat bilan uyg'unlashtirishga alohida e'tibor qaratadi. Kursantlar Toshkent shahrida sodir bo'layotgan favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish bo'yicha real amaliy tadbirlarda bevosita ishtirok etadilar [20] bu esa ularning nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmalar bilan mustahkamlash imkonini beradi.

Xulosa. O'zbekiston Respublikasida fuqaro muhofazasi va favqulodda vaziyatlar sohasidagi kadrlar tayyorlash tizimi tarixiy rivojlanishdan zamonaviy ilg'or bosqichga o'tib, samarali institutlar va markazlar asosida shakllandi. Urush yillaridan boshlab mavjud bo'lgan tayyorgarlik tizimi, Sobiq Ittifoq davri kurslari va mustaqillik davridagi islohotlar, shuningdek FVV Akademiyasi va Fuqaro muhofazasi institutining zamonaviy faoliyati tizimni kuchaytirgan asosiy omillardir.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash nafaqat favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlikni ta'minlaydi, balki mamlakat xavfsizligi va fuqarolarni himoya qilish tizimini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, ilg'or simulyatsiya markazlari va harbiy litseylar yosh avlodni tayyorlashda muhim rol o'ynaydi, bu esa tizimning uzluksiz rivojlanishini ta'minlaydi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. В.С.Никитин. Институт Гражданской защиты министерства по чрезвычайным ситуациям Республики Узбекистан (История). Т: 2004. стр. 6.
2. O'zbekiston Respublikasi FVV joriy arxivi, ish № 4-05/1, 2-yig'ma jild, 2-ro'y, 2000, 86-varaq.
3. A.Boymirzayev Xalqaro tajribalardan ta'lim xulosasi //Muhofaza+, – 2022, № 11, – B. 31.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Fuqaro muhofazasi instituti huzurida aholi va hududlarni tabiiy hamda texnologiya xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, shuningdek, fuqaro muhofazasi sohasidagi ilmiy ishlarni rivojlantirish bo‘yicha idoralararo kengashni tashkil etish to‘g‘risida”gi 985-sonli qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi FVV joriy arxivi, ish № 4-2-01, 2-yig‘ma jild, 3-ro‘y, 2011, 52-varaq.
6. Z. Ilyosova. Zilzilani simulyatsiya qilish markazi // Muhofaza +. 2015, № 6 (126). – 5 b.
7. Z. Ilyosova. Zararni kamaytirish usullari // Muhofaza +. 2014, № 10 (120). – 23 b.
8. Актуальных проблемы современной сейсмологии // АН РУз, Институт сейсмологии им. Г.А.Мавлянова. Международная конференция. – Ташкент, 2016. – С. 110.
9. B.Sodiqov. Fuqaro muhofazasi umumxalq ishi // Muhofaza + – 2016, №8. – b. 5.
10. D.Rahimjonova., A.Suyunov. Amaliyotga tatbiq etildi // Muhofaza+ – 2009, №10. – b. 23.
11. O‘zbekiston Respublikasi FVV joriy arxivi. ish №4 -13, yig‘ma jild - 1, ichki ro‘yxat - 3, 153-varaq.
12. Z. Ilyasova. Istiqbol bergan ne‘mat //Muhofaza + –2016 y. №09. – b. 4
13. O‘zbekiston Respublikasi FVV joriy arxivi, ish № 7-21, 3-yig‘ma jild, 4-ichki ro‘y, 2019, 108-varaq.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-iyundagi “Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida mutaxassislarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish choralari to‘g‘risida”gi PQ-3030-son Qarori.
15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 23-avgust kuni “O‘zbekiston Respublikasi Fuqaro muhofazasi instituti magistraturasiga qabul qilish tartibi to‘g‘risida”gi Qarori
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-iyundagi “O‘smirlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar zaxirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4375-sonli qarori.
17. O‘zbekiston Respublikasi FVV joriy arxivi, ish № 30-05, 3-yig‘ma jild, 4-ro‘y, 2020, 80-varaq.
18. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi oliy harbiy ta’lim muassasalarida o‘qishga nomzodlarni saralab olish va qabul qilish, kursantlarni o‘qishdan chetlashtirish va qayta tiklash tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 775-son qarori.
19. O‘zbekiston Respublikasi FVV joriy arxivi, ish № 30-05, 3-yig‘ma jild, 4-ro‘y, 2020, 71-varaq.
20. O‘zbekiston Respublikasi FVV joriy arxivi, ish № 30-06, 2-yig‘ma jild, 3-ro‘y, 2020, 83-varaq.



Tadqiqot.uz

ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000